

“NKMK” AJ aksiyadorlari  
yillik Umumiy yig‘ilishining  
2024-yil “28” iyundagi  
3-son bayonnomasiga  
10-ilova

“NKMK” AJ aksiyadorlari  
yillik Umumiy yig‘ilishining  
2024 yil “28” iyundagi  
“3”-son bayonnomasi bilan  
**“TASDIQLANGAN”**

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati**  
**“Boshqaruv to‘g‘risida”gi**

**NIZOMI**

Navoiy – 2024-yil

## MUNDARIJA

1.	Umumiyl qoidalar.....	3
2.	Boshqaruv vakolatlari.....	3
3.	Boshqaruv a'zolarini tayinlash va vakolatini muddatidan oldin tugatish.....	3
4.	Boshqaruv raisi - Bosh direktor va Boshqaruv kotibi .....	4
5.	Boshqaruv majlislari.....	5
6.	Boshqaruv a'zolarining huquqlari va majburiyatlar.....	7
7.	Boshqaruv huzuridagi qo'mitalar va ishchi guruhlari .....	8
8.	Boshqaruv a'zolari javobgarligi .....	9
9.	Yakuniyl qoidalar .....	9

## **1. Umumiy qoidalar**

- 1.1 “Navoiy kon-metallurgiya kombinasi” aksiyadorlik jamiyatni (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat, “NKMK” AJ)ning Boshqaruv to‘g‘risidagi mazkur nizomi (keyingi o‘rinlarda – Nizom) ijroiya organining maqomini va faoliyatini, uning a’zolarini tayinlashni shuningdek, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.
- 1.2 Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijroiya organi – Jamiyat Boshqaruvi (keyingi o‘rinlarda – Boshqaruv) tomonidan amalga oshiriladi, uning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi (keyingi o‘rinlarda – Ustav) va ushbu Nizom bilan belgilanadi.
- 1.3 Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra Jamiyat ijroiya organining vakolatlari tijorat tashkiloti (ishonchli boshqaruvchi)ga berilishi mumkin.
- 1.4 Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlari va Jamiyat Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.5 Ushbu Nizom Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

## **2. Boshqaruv vakolatlari**

- 2.1 Boshqaruv vakolatlariga O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan masalalar kiradi.
- 2.2 Boshqaruvning har bir a’zosi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, ushbu Nizom, u bilan tuzilgan shartnoma shartlari, Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari bilan belgilangan vakolat doirasida harakat qiladi.
- 2.3 Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi, Ustav va Jamiyatning rivojlanish rejalarini bilan belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan Boshqaruv o‘z vakolatlariga kiritilgan masalalar bo‘yicha mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi.

## **3. Boshqaruv a’zolarini tayinlash va vakolatini muddatidan oldin tugatish**

- 3.1 Boshqaruv a’zolari Kuzatuv kengashining qaroriga binoan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan, Jamiyat aksiyadorlari vakili bo‘limgan Jamiyat xodimlari bo‘lishi mumkin. Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi qarori bilan tayinlanadigan Boshqaruv raisi – Jamiyat Bosh direktori bundan mustasno.
- 3.2 Boshqaruv a’zosi tegishli ish tajribasi, bilim, malaka va ishbilarmonlik obro‘siga ega bo‘lishi lozim.
- 3.3 Boshqaruv 6 (olti) nafar a’zodan tashkil topadi.
- 3.4 Boshqaruv raisi – Bosh direktor va Boshqaruvning qolgan a’zolari bilan 3 (uch) yil muddatga shartnomalar tuzilib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish to‘g‘risida har yili qaror qabul qilinadi.
- 3.5 Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining Boshqaruv Raisi – Bosh direktorni tayinlash to‘g‘risidagi qarori yig‘ilishda ishtirok etayotgan Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalarining ko‘pchilik ovozi (oddiy ko‘pchilik) bilan qabul qilinadi.
- 3.6 Boshqaruv a’zolarini tayinlash to‘g‘risidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

- 3.7 Boshqaruv a'zolari va (yoki) Boshqaruv raisi – Bosh direktor lavozimiga nomzodlar o'z nomzodlarini ko'rib chiqishda Aksiyadorlarning umumiyligiga yig'ilishida va Kuzatuv kengashi majlisida ishtirok etishlari mumkin.
- 3.8 Boshqaruv a'zolari va (yoki) Boshqaruv raisi – Bosh direktor lavozimiga nomzod tayinlangandan so'ng, Boshqaruv a'zolari va (yoki) Boshqaruv raisi – Bosh direktorning vazifalarini bajarish uchun Jamiyat ularning har biri bilan 3 (uch) yil muddatga, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish to'g'risida har yili qaror qabul qilish sharti bilan shartnomaga tuzadi.
- 3.9 Boshqaruv raisi – Bosh direktor bilan mehnat shartnomasi Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolanadi. Boshqaruv a'zolari bilan shartnomalar Jamiyat nomidan Boshqaruv raisi – Bosh direktor tomonidan imzolanadi.
- 3.10 Boshqaruv raisi – Bosh direktor va (yoki) Boshqaruv a'zolarining ish haqi va ularga haq to'lash miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga bevosita bog'liq bo'ladi va shartnomalar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, Boshqaruv raisi – Bosh direktor va Boshqaruvning qolgan a'zolariga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash, shuningdek ularga o'zgartirish kiritish masalari Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng Aksiyadorlarning umumiyligiga yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

#### **4. Boshqaruv raisi – Bosh direktor va Boshqaruv kotibi**

##### **4.1 Boshqaruv raisi – Bosh direktor**

- 4.1.1 Boshqaruv raisi – Bosh direktor vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan masalalar kiradi.

##### **4.2. Boshqaruv kotibi**

- 4.2.1. Boshqaruv kotibi vazifasi Korporativ kotibiyat xodimi tomonidan bajariladi.
- 4.2.2. Boshqaruv kotibi Boshqaruv va uning a'zolari ishini tashkiliy jihatdan va axborot bilan ta'minlash funksiyalarini bajaradi, shuningdek:
  - a) Boshqaruv a'zolarini ushbu Nizom va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari bilan belgilangan muddatda Boshqaruv majlislari o'tkazish haqida xabardor qiladi;
  - b) Boshqaruv a'zolariga Boshqaruv majlisi uchun zarur bo'lgan ma'lumot va materiallarni yuboradi;
  - c) Boshqaruv a'zolariga Boshqaruv majlislarining kun tartibi masalalarini tayyorlashda texnik va tashkiliy yordam ko'rsatadi;
  - d) Boshqaruvning sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan qarorlarini rasmiylashtiradi;
  - e) Boshqaruv majlislari bayonnomalarini yuritadi, tuzadi va imzolaydi;
  - f) Boshqaruv majlislari bayonnomalaridan ko'chirmalar tuzadi va ularni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi;
  - g) Boshqaruv majlislari bayonnomalari va sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadigan qarorlar bo'yicha Boshqaruv a'zolariga yuborilgan so'rovnomalarning saqlanishini ta'minlaydi;
  - h) Boshqaruvning kirish hujjatlari va chiqish hujjatlarining nusxalari hisobini yuritadi va ularni saqlaydi, shuningdek

i) ushbu Nizom, Jamiyatning boshqa ichki hujatlari muvofiq boshqa funksiyalarni bajaradi.

## **5. Boshqaruv tomonidan qaror qabul qilish tartibi**

### **5.1 Boshqaruv qarorlarini sirtdan qabul qilish**

- 5.1.1. Boshqaruv tomonidan qarorlar sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan) Boshqaruvning tayinlangan barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Mazkur qarorlar Boshqaruv majlisi bayonnomasi sifatida rasmiylashtiriladi hamda bayonnomada “sirtdan” belgisi orqali bayonnomadagi qarorlar sirtdan qabul qilinganligi ko‘rsatiladi.
- 5.1.2. Boshqaruv tomonidan qarorlar sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan) qabul qilinganda, Boshqaruv kotibi sirtdan o‘tkazilgan Boshqaruv majlisi bayonnomasini tayyorlaydi va imzolash uchun barcha Boshqaruv a’zolariga yuboradi. Bayonnomalar Boshqaruvning tayinlangan barcha a’zolari tomonidan imzolangandan so‘ng, ushbu bayonnomani ro‘yxatdan o‘tkazadi va ijro uchun tegishli mutaxassislarga yuboradi.

- 5.1.3. Boshqaruv tomonidan sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan) qabul qilingan qarorlar Boshqaruv Raisi – Bosh direktor, Kuzatuv kengashi, Boshqaruv a’zolari, Ichki audit xizmati, Komplayens xizmati, Korporativ maslahatchi va Boshqaruv kotibi tomonidan Boshqaruvga kiritilgan masalalar yuzasidan qabul qilinishi mumkin.

### **5.2 Boshqaruv majlislarini o‘tkazish**

- 5.2.1. Boshqaruvning majlislari zaruratga ko‘ra, lekin har oyda kamida 1 (bir) marta o‘tkaziladi. Boshqaruv majlislarida Boshqaruv tomonidan tasdiqlangan choraklik rejaga kiritilgan masalalar hamda Boshqaruv Raisi - Bosh direktorning o‘z tashabbusi yoki Boshqaruvga ko‘rib chiqish uchun masala kiritish vakolatiga ega shaxslarning talabi bilan kiritilgan masalalar ko‘rib chiqiladi.
- 5.2.2. Boshqaruv Raisi – Bosh direktor xohishiga ko‘ra, Boshqaruv majlisi a’zolarning bevosita ishtiropi orqali yoki zarur hollarda sirtdan ovoz berish orqali o‘tkazilishi mumkin.
- 5.2.3. Boshqaruv Raisi – Bosh direktorning qaroriga binoan Boshqaruv majlisi videokonferensaloqadan foydalangan holda o‘tkazilishi mumkin, bu haqda Boshqaruv majlisining bayonnomasiga tegishli yozuv kiritiladi. Bunday holda, majlis o‘tkaziladigan joy Jamiyat joylashgan joy deb hisoblanadi.
- 5.2.4. Boshqaruv majlislarini Boshqaruv Raisi – Bosh direktor yoki ko‘rib chiqilayotgan masalalarning taaluqliligi bo‘yicha Boshqaruv a’zolaridan biri boshqaradi.
- 5.2.5. Boshqaruv kotibi Boshqaruv majlislarini bayonnomasini yuritadi.

### **5.3 Boshqaruvga qaror qabul qilish uchun masalalar kiritish**

- 5.3.1 Boshqaruvga ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish uchun masalalar Boshqaruv Raisi - Bosh direktorning o‘z tashabbusi bilan yoki quyidagilarning talablariga binoan kiritilishi:
- Kuzatuv kengashi a’zosi;
  - Boshqaruv a’zosi;
  - Ichki audit xizmati;
  - Korporativ maslahatchi;
  - Komplayens xizmati;

- f) Boshqaruv kotibi.
- 5.3.2 Boshqaruvga ko'rib chiqish uchun masala kiritish to'g'risidagi talab tashabbuskor tomonidan Boshqaruv raisi – Bosh direktorga yoki uning vazifalarini bajaradigan shaxsga yuboriladi, bunda masalaning mazmuni aks ettirilishi lozim.
- 5.3.3 Boshqaruvga ko'rib chiqish uchun masala kiritayotgan tashabbuskor, kiritilayotgan masala yuzasidan barcha asoslovchi axborotlar va hujjatlar (materiallar)ni Boshqaruv kotibiga taqdim etishi shart. Boshqaruv kotibi yoki Boshqaruv a'zolari Boshqaruvga kiritilayotgan masalalar yuzasidan qo'shimcha materiallarni talab qilishga haqli.
- 5.3.4 Tashabbuskor tomonidan Boshqaruvga kiritilayotgan masalalar Boshqaruv qaror qabul qilinishi kutilayotgan kundan kamida 10 (o'n) ish kuni oldin taqdim etilish lozim.
- 5.3.5 Boshqaruv majlislarida kun tartibiga kiritilgan masalalar ko'rib chiqiladi, shuningdek, majlisda ishtirok etayotgan Boshqaruv a'zolari ko'pchiligining roziligi bilan kun tartibiga kiritilmagan masalalar ko'rib chiqilishi mumkin.
- 5.3.6 Boshqaruv a'zolari bo'lмаган shaxslar Boshqaruv majlislariga taklif qilinishi mumkin. Bunday shaxslar kun tartibidagi muhokamalarda qatnashish, muhokama qilingan masalalar bo'yicha o'z sharhlarini, ma'lumotlarini va (yoki) materiallarini taqdim etish huquqiga ega, shu bilan birga ular kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega emaslar.
- 5.4 Boshqaruv a'zolarini Boshqaruv majlisini chaqirish va o'tkazish haqida ogohlantirish**
- 5.4.1 Boshqaruv kotibi Boshqaruv a'zolarini elektron pochta orqali yoki Boshqaruvning har bir a'zosi tomonidan xabarnoma olishni kafolatlovchi ular uchun boshqa qulay usulda yozma ravishda majlis o'tkazish to'g'risida xabardor qiladi (shu jumladan, pochta, telegraf, faksimiliya yoki boshqa aloqa vositasi orqali).
- 5.4.2 Boshqaruv a'zosi Boshqaruv majlisida ishtirok eta olmasligi haqida Boshqaruv raisi – Bosh direktorni oldindan xabardor qilishi lozim.
- 5.5 Kvorum va qaror qabul qilish**
- 5.5.1 Boshqaruv majlisini o'tkazish uchun kvorum tayinlangan Boshqaruv a'zolarining kamida 65% (oltmish besh foizi)dan kam bo'lmasligi lozim.
- 5.5.2 Boshqaruvning qarorlari Boshqaruv a'zolari sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Nizomning 5.5.3-bandida nazarda tutilgan masalalar bundan mustasno. Ovozlar teng bo'lsa Boshqaruv Raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.
- 5.5.3 Jamiyat ustavining 15.14-bandи (3), (4), (5), (6), , (15), (17) kichik bandlarida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha qarorlar Boshqaruv majlisida ishtirok etayotgan barcha Boshqaruv a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Ustavning mazkur bandlari tartib raqamlari o'zgartirilganda, ushbu bandlarga havola tegishli masala qayd etilgan bandlarga havola hisoblanadi.
- 5.5.4 Agar ushbu Nizomning 5.5.3-bandida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha Boshqaruv tomonidan bir ovozdan qaror qabul qilinmasa, bunday masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish masalasi Kuzatuv kengashiga kiritiladi.
- 5.5.5 Boshqaruv majlisida masalalarni hal etishda Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Boshqaruv a'zosi tomonidan ovoz berish huquqini boshqa shaxsga, shu jumladan, Boshqaruvning boshqa a'zosiga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

- 5.5.6 Boshqaruv majlisida qabul qilingan Boshqaruv qarori ushbu masala bo‘yicha ovoz berish natijalari e’lon qilingan paytdan e’tiboran kuchga kiradi.
- 5.5.7 Boshqaruvning sirdan ovoz berish yo‘li bilan qabul qilingan qarori Boshqaruv majlisining bayonnomasi tuzilgan kundan boshlab lekin, ovoz berish so‘rovnomalari qabul qilish muddati tugaganidan keyin uchinchi kundan kechiktirmay kuchga kiradi.
- 5.6 Boshqaruv majlisi bayonnomasi**
- 5.6.1 Boshqaruv qarorlari bayonnomma bilan rasmiylashtiriladi, u Boshqaruv Raisi - Bosh direktor, Boshqaruvning qolgan a’zolari va Boshqaruv kotibi tomonidan imzolanishi lozim.
- 5.6.2 Boshqaruv majlisi bayonnomasi loyihasi u o‘tkazilgandan so‘ng 3 (uch) ish kunidan kechikmasdan tuzilishi lozim. SHundan so‘ng, bayonnomma imzolash uchun Boshqaruv a’zolariga taqdim etiladi. Boshqaruv majlisi bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:
- a) Jamiyatning to‘liq nomi va joylashgan joyi;
  - b) majlis o‘tkazish sanasi, vaqt va joyi;
  - c) majlis o‘tkazish shakli;
  - d) majlisda ishtirok etayotgan shaxslar haqida ma’lumotlar;
  - e) kun tartibidagi barcha masalalar yoki har bir masala bo‘yicha kvorum;
  - f) majlisning kun tartibi;
  - g) ovozga qo‘yilgan masalalar va har bir masala bo‘yicha qarorlarning tahriri va Boshqaruv majlisining kun tartibidagi har bir masala bo‘yicha Boshqaruvning har bir a’zosi tomonidan ovoz berish natijalari aks ettirilgan ovoz berish natijalari;
  - h) qabul qilingan qarorlar; shuningdek
  - i) bayonnomani imzolagan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (Boshqaruv Raisi, Boshqaruvning qolgan a’zolari va Boshqaruv kotibining yoki majlisda Boshqaruv kotibi vazifasini bajaruvchi shaxsning FISH).
- 5.6.3 Boshqaruv kotibi Boshqaruv a’zosining iltimosiga binoan unga tanishish uchun Boshqaruv majlisining kotibi imzosi bilan tasdiqlangan Boshqaruv majlisi bayonnomasining nusxasini taqdim etadi.
- 5.6.4 Boshqaruv majlislari bayonnomalari elektron shaklda rasmiylashtirilishi mumkin. Maxfiy hamda konfidensial xarakterdagi Boshqaruv majlislari bayonnomalari uchun alohida tartib raqami yuritilishi mumkin.
- 5.6.5 Boshqaruv majlislari bayonnomalaridan ko‘chirmalar quyidagi shaxslarga taqdim etiladi:
- a) “NKMK” AJ xodimlari va auditorning so‘roviga ko‘ra;
  - 6) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar va organlarga (shu jumladan, davlat organlari).
- 6. Boshqaruv a’zolarining huquqlari va majburiyatları**
- 6.1 Boshqaruv raisi – Bosh direktor Jamiyatda import shartnomalari bo‘yicha xaridlarning asoslanganligi, valyuta mablag‘laridan foydalanishning oqilonaligi va tejamkorligini ta’minlaydi.

- 6.2 Boshqaruv a'zosi boshqa tashkilotlarda faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligi bilan ishlashga haqlidir. Boshqaruv a'zosi Jamiyat bilan raqobatlashadigan tashkilotlarda ishlashga haqli emas, aksiyalari (ishtirok ulushlari) to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita Jamiyatga tegishli bo‘lgan tashkilotlar bundan mustasno.
- 6.3 Boshqaruv a’zolari O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Ustav, Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlariga zid ravishda Jamiyat mulkidan foydalanmasligi yoki foydalanishga yo‘l qo‘ymasligi shart, shuningdek, shaxsiy manfaatlari uchun foydalanish va affilangan shaxslar bilan shartnomalar tuzishda suiste’mol qilishga yo‘l qo‘ymasligi lozim.
- 6.4 Boshqaruv a’zolari Jamiyatga zarar yetkazilishini oldini olish, Jamiyat faoliyatini optimallashtirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish, Jamiyat Boshqaruvi majlisini chaqirishga tashabbus ko‘rsatish, Boshqaruv Raisi - Bosh direktorini xabardor qilish yoki boshqa har qanday mayjud usulda Jamiyat faoliyatini optimallashtirishga majbur.
- 6.5 Boshqaruv a’zosining boshqa funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Ustav, shuningdek ushbu shaxs bilan Jamiyat o‘rtasida tuzilgan shartnomaga bilan belgilanadi.
- 6.6 Boshqaruv majburiyatlariga quyidagilar kiradi:**
- a) Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari ijrosini tashkil etish;
  - б) Jamiyatarkibiy bo‘linmalarining o‘zaro samarali hamkorligini ta’minlash;
  - в) ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan miqdordagi daromad olinishini ta’minlash;
  - г) Jamiyatni rivojlantirish biznes-rejalari va dasturlarini ishlab chiqishga rahbarlik qilish, ularning ijrosini tashkil etish va nazorat qilish;
  - д) xizmat yoki tijorat sirini, shuningdek insayderlik axborotlarni tashkil etadigan ma’lumotlarni saqlanishini ta’minlash;
  - е) jamoaviy muzokaralarda ishtirok etish;
  - ж) o‘z vakolatiga taalluqli bo‘lgan ishlarning holati to‘g‘risida hisobotlarni o‘z vaqtida aksiyadorlarning Umumiyligi yig‘ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashiga taqdim etish;
  - з) ichki hujjatlar, amaldagi qonunchilik va O‘zbekiston Respublikasining boshqa me’yoriy hujjatlariga rioya qilish.
- 6.7 Boshqaruv a’zolarining aniq huquq va majburiyatlari Boshqaruv a’zolarining har biri bilan tuzilgan shartnomada ko‘zda tutilgan.

## **7. Boshqaruv huzuridagi qo‘mitalar va ishchi guruhlar**

- 7.1. Boshqaruv tomonidan o‘z vakolati doirasidagi masalalarni dastlabki tarzda o‘rganib chiqish va ushbu masalalar yuzasidan Boshqaruvga tavsiyalar tayyorlash hamda faoliyatini tartibga soluvchi nizomlarda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarish uchun Boshqaruv huzurida qo‘mitalar va/yoki ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin.
- 7.2. Boshqaruv huzuridagi qo‘mita va ishchi guruhlar faoliyatini tashkil etish maqsadida zarur bo‘lgan kasbiy malaka, bilim, tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan Jamiyat mutaxassislari yoki tashqi ekspertlar jalb etilishi mumkin.

7.3. Boshqaruv huzuridagi qo‘mita va ishchi guruhlarni shakllantirish va faoliyat yuritish tartibi, ularning tarkibi, vazifalari va funksiyalari, huquqlari, shuningdek, Boshqaruv va Jamiatning tarkibiy bo‘linmalari bilan o‘zaro munosabatlari Boshqaruv tomonidan tasdiqlanadigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

## **8. Boshqaruv a’zolari javobgarligi**

8.1 Boshqaruvning har bir a’zosi o‘z huquqlarini amalga oshirganda va majburiyatlarini bajarganda Jamiat manfaatlariga muvofiq ish tutishi lozim va belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

8.2 Boshqaruvning har bir a’zosi ushbu lavozimda ishlagan davrida faoliyati bilan raqobatlashadigan yoki mahsulot sotish yoxud xizmatlar ko‘rsatishda qiyinchiliklar tug‘diradigan yuridik shaxslar va korxonalarini tashkil etish yoki tashkil etishda qatnashish huquqiga ega emas. Boshqaruvning har bir a’zosi Jamiatdagi lavozimga tayinlangandan so‘ng, ushbu yuridik shaxslarda o‘z ishtirokini to‘xtatib turishi va bu haqda Jamiat Kuzatuv kengashiga xabar berishi shart.

8.3 Boshqaruv O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Jamiat Ustaviga muvofiq Jamiat oldida o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida Jamiatga etkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.

8.4 Boshqaruv quyidagilar uchun javobgardir:

- a) Jamiatda ichki nazorat va xatarlarni boshqarish tartib-qoidalarini ishlab chiqish va qo‘llash uchun;
- б) aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi va Jamiat Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish uchun moliyaviy va inson resurslarini ajratish uchun;
- в) Kuzatuv kengashini Jamiatning rivojlanish rejasi doirasida o‘z funksiyalarini to‘liq bajarishi uchun zarur resurslar bilan ta’minalash uchun;
- г) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi, Ustavda va Jamiatning ichki hujjalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

## **9. Yakuniy qoidalar**

9.1 Ushbu Nizomga qo‘srimchalar va o‘zgartirishlar Jamiat Kuzatuv kengashi a’zolari va (yoki) Boshqaruv a’zolari taklifiga binoan kiritiladi.

9.2 Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

9.3 Jamiat yoki jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarining kamida 1 foiziga (bir foiziga) egalik qiladigan aksiyador (aksiyadorlar) Boshqaruv a’zolariga nisbatan ular tomonidan Jamiat yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risida da’vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

9.4 Agar ushbu Nizomning alohida bandlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va (yoki) Jamiat Ustaviga zid bo‘lsa, bunday moddalar o‘z kuchini yo‘qotadi va ushbu bandlar bilan tartibga solinadigan masalalar ushbu Nizomga tegishli o‘zgartirishlar kiritilmaguncha, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va (yoki) Jamiat Ustavining qoidalari bilan tartibga solinadi.